


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70710301 – Matbaa va qadoqlash texnologiyasi  
magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABLARI*

Toshkent-2024



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil “01” 08. dagi 277—sonli buyrug‘i bilan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilarini takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarning sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>6</b>
<b>3.</b>	<b>Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirish) qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>5.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag'i .....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70710301 – Matbaa va qadoqlash texnologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 70710301 – Matbaa va qadoqlash texnologiyasi magistratura imutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilarini.**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Tegishli mutaxassislik mavjud barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, aksiyadorlik jamiyatlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, jumladan: matbaa va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish, noshirlik ishi, matbaa mahsulotlari dizayni, matbaa mahsulotlarini ishlab chiarishni loyihalash va tashkil qilish, ishlab chiqarish, texnologik jihozlarni montaj qilish, sozlash va ishlatish va takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.**

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati;

davlat boshqaruvi va uning turli hududiy bo‘linmalari;

matbaa va qadoqlash texnologiyalari va dizyni, noshirlik ishi, bosma mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar;

mutaxassislik sohasi bo‘yicha texnologik, konstruktorlik va ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

ilmiy tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

loyihaviy-konstrukturlik faoliyati;

tahlil va nazorat faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati;

axborot-tahliliy faoliyat.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*70710301 – Matbaa va qadoqlash texnologiyasi* magistratura mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘yektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstrukturlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv va ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatda:**

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalshtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbiy etika qoidalarigi rioxasi qilish.

#### **Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatda:**

matbaa va noshirlik faoliyatini tashkil qilish;

matbaa sanoatidagi bosmaxonalar (mini bosmaxonalar, o‘rta bosmaxonalar, yirik bosmaxonalar) loyihasini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish korxonalarida loyihalash-texnologik ishlarini o‘rganish, tahlil qilish, ishlab chiqish va qo‘llash;

ishlab chiqarish korxonalarida prepress, bosish va postpress jarayonlarini tashkil qilish bo‘yicha loyihalash-konstrukturlik va loyihalash-texnologik ishlarini to‘liq bajarish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lish;

ilmiy-tadqiqot institutlari va tashkilotlarida ham ishlab chiqarish korxonalarida prepress, bosish va postpress jarayonlarini loyihalash va tashkil qilish bo‘yicha loyihalash-konstrukturlik ishlarini bajarish va ularni qo‘llash tajribasiga ega bo‘lish;

ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlarni tashkil qilish va boshqarishda hozirgi qo‘yilgan talablar nuqtai nazaridan zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni qo‘llab, ish faoliyatini tashkil qilish ko‘nikmasi va tajribasiga ega bo‘lishi.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatda:**

ishlab chiqarish korxonalarida matbaa va qadoqlash ishlab chiqarishi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda meyoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;

ishlab chiqarish korxonalarida matbaa va qadoqlash ishlab chiqarishi faoliyatini loyihalash sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

matbaa va qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar sifatini oshirish va uni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish;

matbaa va qadoqlash ishlab chiqarishi sohasidagi innovatsion texnologiyalarni tahlil qilish va mahalliy sanoat korxonalariga joriy qilish loyihalariga oid jarayonlar hamda hodisalarini xarakterlaydigan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash.

## 2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilinadigan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me’yorlarni kasbiy faoliyatida qo‘llay olish;

yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o‘z faoliyatida me’yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olish;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga ega bo‘lish, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon etish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat bilan yondashish;

kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida foydalana olish;

axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish;

o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila olish;

axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

matbaa texnologiyasi va dizaynining ilmiy asoslari, ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari, turli korxonalarda ish jarayonini tashkil etishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;

magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko‘zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalarni ta’minlashi kerak.

### **3. Ilmiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o‘zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta’lim muassasalarida to‘qimachilik va yengil sanoat sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo‘lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko‘nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo‘yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo‘llay bilsish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko‘nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirish;

o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlashni tashkil etish uquvi va ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim.

### **4. Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirish) qo‘yiladigan talablar.**

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o‘tkaziladi. Bunda soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta’minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o‘quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko‘zda tutiladi.

## 5. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1440</b>	<b>48</b>	<b>1-3</b>
1.01	ITM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	MFO'M1106	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	1
1.03	PTPM1206	Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat	180	6	2
1.04	MUTSXK1106	Matbaa uskunalarini ta'mirlash va servis xizmat ko'rsatish	180	6	1
1.05	PPIT1106	Printmedia va postpress istiqbolli texnologiyalari	180	6	1
1.06	PTSNQ1206	Printmedia texnologiyasida sifatni nazorat qilish	180	6	2
1.07	PTU12312	Printmedia tizimlari uskunalarini	360	12	2, 3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>1-3</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>					
Muhandis-texnolog, pedagog-tadqiqotchi					
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
3.01	ITIMDT3123438	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1140	38	1-4
3.02	IPI312314	Ilmiy-pedagogik ish	420	14	1-3
3.03	IA3408	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	240	8	4
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	<b>1-4</b>

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---


### Tayanch so‘zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistratura va bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta’lim, o‘quv jarayoni, magistratura, konsalting, loyiha-qidiruv, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi, matbaa uskunalariga servis xizmat ko‘rsatish, bosishgacha bo‘lgan jarayon, tipografika va mакetlash, bosishgacha bo‘lgan jarayon texnologiyasi va dizayni, bosish-pardozlash nazariy asoslari, rastrlash va ranglarga ajratish, sifat nazorat, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta’lim, o‘quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, profil, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ilmiy faoliyat, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Islam Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Rektor  akademik. S.M. Turabdjanov  
M.O. 202\_ yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti**


O'quv ishlari bo'yicha prorektor  X.Kamilova  
M.O. 202\_ yil « 13 » iyun

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovasiyalar  
 vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
 rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
 Direktor **

202\_ yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi**

Direktor  B.A.Kambarov

M.O.

202\_ yil « 14 » iyun

**"Kolorpak" MChJ**

Direktor  M.Mirzazmedov

M.O.

202\_ yil « 15 » iyun